"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

BANK BOSHQARUVI QARORI

**№ 1**
**2025 yil «6» «yanvar»**

# Bank tizimida jismoniy shaxslar uchun "SQB Mobile" ilovasini joriy qilish hamda ilova orqali kredit mahsulotlarini ajratish to'g'risida

Bank tizimida "UzPSB Mobile" mobil ilovasi ishlab chiqilib, 2018-yilda amaliyotga joriy qilingan.

Bank boshqaruvining 2020-yil 30-martda "JOYDA" mobil platformasi orqali mijozlarga xizmat ko'rsatish tartibini va skoring modelini tasdiqlash haqida"gi 40/8-sonli qarori qabul qilingan.

"JOYDA" ilovasi amaliyotga joriy qilingandan so'ng, "UzPSB Mobile" ilovasini rivojlantirish ortiqcha mablag' sarf qilish bilan bir qatorda uzoq vaqt talab etishi hamda Bank tizimida ikkita bir funksiyaga ega bo'lgan ilovani ishlatish maqsadga muvofiq emas deb topilgan va Bank boshqaruvining 2023-yil 9-avgustdagi 3013-sonli farmoyishiga asosan "UzPSB Mobile" mobil ilovasi faoliyati 2023-yil 10-avgustdan vaqtincha to'xtatilgan.

Shu bilan birga, "SQB Mobile" mobil ilovaning "Marketplace" savdo maydoni bo'limini rivojlantirishda mobil ilova marketpleysida tovarlarni sotuvga chiqarishda, kontent menejerlar mavjud emasligi, "Marketplace" orqali tovarlar sotilganda bir nechta hamkor tashkilotga tegishli bo'lgan tovarlarni bir joyga yig'ish va yig'ilgan tovarlarni qadoqlash, saqlash, har bir hududda kamida bittadan "buyurtmalarni olib ketish nuqtasi"ni va omborxonalarni tashkil etish zarurligi, bunda omborxonalar uchun binolarni olish xarajatlarni oshib ketishiga sabab bo'lishini inobatga olgan holda, "SQB Mobile" mobil ilovasining "Marketplace" bo'limi faoliyatini to'xtatish zaruriyati yuzaga kelgan.

Shuningdek, "O'zsanoatqurilishbank" ATB Boshqaruvi Raisi tomonidan berilgan topshiriqlar ijrosini ta'minlash bo'yicha 2024-yil 2-iyuldagi 101-sonli topshiriqlar bayonining 56-bandida "Joyda" mobil ilovasini rebrending qilish bo'yicha taklif kiritish vazifasi yuklatilgan.

Mazkur topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Bankning amaldagi jismoniy shaxslar uchun xizmat ko'rsatuvchi "JOYDA" mobil ilovasi "SQB Mobile" ilovasiga

rebrending qilinib, yangi logotip ishlab chiqilgan va 2024-yil 23-oktyabrda 201974-sonli talabnoma orqali “SQB Mobile” ilovasini Bankning intellektual mulki sifatida roʻyxatdan oʻtkazish uchun Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligiga tegishli hujjatlar taqdim qilingan.

Shunga koʻra, Chakana biznes departamenti tomonidan joriy yilning 10-dekabr kuni Bank boshqaruviga kiritilgan 7986-sonli bildirishnomada amalda faoliyati vaqtincha toʻxtatilgan bankning “UzPSB Mobile” mobil ilovasi va “SQB Mobile” mobil ilovaning “Marketplace” boʻlimi faoliyatini toʻxtatishni, Raqamli biznes departamenti tomonidan joriy yilning 25-dekabr kuni Boshqaruv Raisi oʻrinbosariga kiritilgan 8437-sonli bildirishnomada Bankning “JOYDA” mobil ilovasi nomini “SQB Mobile”ga oʻzgartirish masalasini Bank boshqaruvi muhokamasiga kiritishga ruxsat soʻralgan.

Bank boshqaruvi toʻgʻrisidagi nizomning 22-bandiga muvofiq yangi bank xizmati turlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish Boshqaruv vakolatiga kiradi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Bank boshqaruvi

**QAROR QILADI:**

**1.** “JOYDA” mobil ilovasi nomi “SQB Mobile” ilovasi nomiga oʻzgartirilsin va “SQB Mobile” mobil ilovasi orqali ajratiladigan mahsulotlarning ommaviy oferta shartnomalari ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda yangi joriy etiladigan, shuningdek shartlariga tegishli oʻzgartirishlar kiritilgan mahsulot talablaridan kelib chiqib tasdiqlangan ofertalar shartlariga tegishli qoʻshimcha va oʻzgartirishlar kiritilishi taʼminlab borilsin.

**2.** Bankning “UzPSB Mobile” mobil ilovasi va “SQB Mobile” ilovasining “Marketplace” savdo maydoni faoliyati toʻxtatilsin.

**3.** Raqamli biznes (T.Norov), Chakana biznes (A.Mananov), Axborot texnologiyalari (A.Kenjaev) departamentlari va boshqa tegishli boʻlinmalar zimmasiga Bank tizimidagi amaldagi ichki meʼyoriy hujjatlarda qayd qilingan “JOYDA” mobil ilovasi” jumlasini “SQB Mobile” ilovasi jumlasiga oʻzgartirish choralarini koʻrish vazifasi yuklatilsin.

**4.** Chakana biznes departamenti (A.Mananov) mazkur qaror bilan kiritilayotgan oʻzgartirishlarni tegishli tarkibiy boʻlinmalarga yetkazsin.

**5.** Raqamli biznes departamenti (T.Norov) va Axborot texnologiyalari departamenti (A.Kenjaev) mobil ilovaga tegishli oʻzgartirishlar kiritilishini hamda mobil ilovasi orqali koʻrsatiladigan barcha xizmatlarni amalga oshirilishini taʼminlasin.

**6.** Marketing departamenti (A.Madjidov) mazkur oʻzgartirishlar boʻyicha reklama bannerlari, bukletlar va boshqa reklama vositalariga tegishli oʻzgartirish kiritsin

va 1 kun ichida bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirsin hamda rasmiy veb-saytga joylashtirilgan kundan boshlab kuchga kirishi belgilab qo‘yilsin.

**7.** Bank tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti (A.Kamalov) mazkur kiritilayotgan o‘zgartirishlar mazmun-mohiyatini Bank tarmoqlaridagi mas’ul xodimlarga yetkazsin va ular bilan texnik-o‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etsin.

**8.** Barcha tarkibiy bo‘linma va tarmoqlar rahbarlari mazkur qaror bilan kiritilayotgan o‘zgartirishlar mazmun-mohiyatini xodimlarga yetkazsin va mas’ul xodimlar tomonidan uning to‘liq bajarilishini nazorat qilsin.

**9.** Barcha tarmoqlar rahbarlari mazkur kiritilayotgan o‘zgartirishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni axborot stendlariga joylashtirilishini ta’minlasin.

**10.** Mazkur Qaror ijrosini nazorat qilish Biznes bosh direktori R.Jukov zimmasiga yuklatilsin.

| | | |
|---|---|---|
| **Boshqaruv Raisi v.v.b.** | **IMZOLANGAN** | **A.Ergashev** |
| Boshqaruv Raisi v.v.b. | **IMZOLANGAN** | A.Ergashev |
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari | **IMZOLANGAN** | Sh.Yakubov |
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari | **IMZOLANGAN** | Sh.Yusupov |
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari | **IMZOLANGAN** | D.Umarov |
| Boshqaruv Raisi o'rinbosari | **IMZOLANGAN** | S.Abduvaliyev |
| Risk bosh direktori | **IMZOLANGAN** | S.Ismagilov |
| Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti Departament direktori v.v.b | **IMZOLANGAN** | A.Xujamuratov |

**Kiritildi:**

| | | |
|---|---|---|
| Chakana biznes departamenti Departament direktori v.v.b. | **IMZOLANGAN** | A.A.Mananov |

**Kelishuvchilar:**

| | | |
|---|---|---|
| Yuridik departament Departament direktori v.v.b. | **KELISHILDI** | U.Aminova |
| Raqamli biznes departamenti Departament direktori | **KELISHILDI** | T.Norov |
| Axborot texnologiyalari departamenti Departament direktori | **KELISHILDI** | A.Kenjayev |

| | | |
|---|---|---|
| Bank tarmoqlari faoliyatini muvofiqlashtirish departamenti Departament direktori | **KELISHILDI** | A.Kamalov |
| Marketing departamenti Departament direktori v.v.b. | **KELISHILDI** | A.Madjidov |
| Biznes Bosh direktori | **KELISHILDI** | R.Jukov |

*https://hujjat.sqb.uz/?pin=vK49rK32&id=0e98206f-b5ba-45a7-bb8a-98f0b3836577*

*OMMAVIY OFERTA/ ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА*

| | |
|---|---|
| **“Birinchi” nomli kredit bank kartalari orqali limit ajratish haqida ommaviy oferta shartnomasi**<br>**Kreditning to‘liq qiymati: 33.5 % (o’ttiz uch butun o’ndan besh foiz)**<br><br>**1. Umumiy shartlar**<br>**1.1.** Mazkur shartnomaga ko‘ra “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keyingi o‘rinlarda “Bank”) tomonidan emissiya qilingan bank karta egalari bo‘lgan fuqarolar (keyingi o‘rinlarda “Qarz oluvchi”)ga, milliy valyutada bankning “SQB MOBILE” mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda “mobil ilova”) orqali qayta tiklanadigan kredit limiti ajratish yuzasidan ommaviy oferta shartnomasini taklif etadi.<br>**1.2.** Ushbu oferta Qarz oluvchi u bilan tanishib chiqqanligini tasdiqlovchi belgini belgilab, raqamli identifikatsiyadan o’tishi bilan akseptlangan hisoblanadi.<br>Ommaviy oferta shartnomasi, Qarz oluvchi tomonidan aktseptlanganidan so‘ng kuchga kiradi hamda mazkur ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini va to‘lovlarni to‘lashni istisno qilmasdan so‘zsiz qabul qilinganligini anglatadi.<br>**1.3.** Qarz oluvchi ommaviy oferta shartnomasini aktseptlash bilan quyidagilarni tasdiqlaydi:<br>- shartnoma shartlarini boricha va to‘liqligicha qabul qilishini;<br>- o‘zaro tushunmovchilik va nizolar vujudga kelganida Bank shartnoma shartlariga tayanish huquqiga egaligini;<br>- shartnomadan dalil sifatida foydalanish imkoniyatini berishini;<br>- mazkur shartnoma shartlari mobil ilova orqali kredit mablag’i ajratilgan vaqtdan boshlab amal qilishini;<br>- ushbu ofertada nazarda tutilgan harakatlarni bajarish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 iyuldagi O'RQ-547-sonli “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni qoidalariga muvofiq, Qarz oluvchi bankka o’zining shaxsiy ma'lumotlari bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni, shu jumladan yig'ish, tizimlashtirish, saqlash va qayta ishlash huquqini beradi hamda mijozning shaxsiy ma'lumotlarini o'zgartirish, qo'shish, ishlatish, taqdim etish, tarqatish, uzatish, shaxssizlantirish va yo'q qilish, shuningdek, ushbu ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirish maqsadida shaxsiy ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga berishga rozilik beradi; | **Договор публичной оферты на предоставления кредитной банковской карте “Первый”**<br>**Полная стоимость кредита: 33.5 % (тридцать три целых пять десятых процентов)**<br><br>**1. Общие условия**<br>**1.1.** Согласно настоящему договору, «Узпромстройбанк» (далее – «Банк») предлагает публичную оферту по открытой возобновляемой линии в национальной валюте через мобильное приложения банка «SQB MOBILE» физическим лицам - держателям банковских карт, эмитированных Банком (далее – «Заемщик»).<br>**1.2.** Настоящий договор публичной оферты считается акцептованным Заемщиком после отмечания знака, подтверждающий, что он ознакомился с ним, и проходит цифровую идентификацию. Договор публичной оферты вступает в силу после его акцепта заемщиком и означает безусловное принятие всех условий данного договора публичной оферты и обязательства по оплате, без исключений.<br>**1.3.** Акцептом договора публичной оферты заемщик подтверждает, что:<br>- полное и безоговорочное принятие условий договора;<br>- при возникновении недоразумений и споров банк вправе ссылаться на условия договора;<br>- согласия на использования договора в качестве доказательства;<br>- условия настоящего соглашения действуют с момента выдачи кредита через мобильное приложение;<br>- с целью исполнения действий предусмотренных настоящей Офертой, а также в соответствии с положениями Закона Республики Узбекистан №ЗРУ-547 от 02.07.2019 года «О персональных данных», Заемщик предоставляет Банку право на хранение и обработку, в том числе автоматизированную, любой информации, относящейся к персональным данным, включая сбор, системати-зацию, хранение, изменение, дополнение, использование, предоставление, распространение, передачу, обезличивание и уничтожение персональных данных Клиента, а также дает свое согласие на передачу Персональных данных третьим лицам в целях осуществления действий, предусмотренных настоящей Офертой |

| | |
|---|---|
| Mazkur oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.<br>**1.4.** Kredit limiti maksimal summasi Bankning skoring dasturi orqali aniqlanadi.<br>**2. Shartnoma predmeti**<br>**2.1.** Bank ushbu oferta shartnomasini aktseptlagan Qarz oluvchiga shaxsiy ehtiyojlari uchun kredit ajratish majburiyatini, Qarz oluvchi esa olingan kredit karta mablag'larini belgilangan muddat va shartlarda qaytarish hamda foydalanganligi uchun foizlar to'lash majburiyatini oladi.<br>**3. Kredit karta ajratish tartibi va maqsadlari**<br>**3.1.** Kredit karta mablag'i Qarz oluvchining nomiga emissiya qilingan kredit bank kartasiga ssuda hisobvarag'idan, qayta tiklanadigan kredit liniyasi doirasida pul ko'chirish yo'li bilan ajratiladi.<br>**3.2.** Kredit limiti biriktirilgan kredit bank kartasidan to'lovlarni amalga oshirish va naqd pul olish maqsadlari uchun foydalaniladi.<br>**4. Kredit kartadan foydalanish va uni qaytarish shartlari**<br>**4.1.** Kredit foiz stavkasi: 26,9 foiz. Bunda, kredit limiti tovar va xizmatlar sotib olish uchun foydalanilgan qismiga, keyingi oyning 10 sanasi (to'lov kuni)ga qadar to'liq qaytarilgan taqdirda foizlar undirilmaydi.<br>**4.2.** Foiz stavkasi o'zgarmas.<br>**4.3.** Kredit muddati: 4 yil. Bunda, kreditning oxirgi 12 oyi qarzdorlikni so'ndirish uchun ishlaydi.<br>**4.4.** To'lov kuni: har oyning 10 sanasi. To'lov kuni ishlanmaydigan (dam olish, qo'shimcha dam olish va bayram) kunga to'g'ri kelgan taqdirda, keyingi ish kuniga ko'chiriladi.<br>**4.5**. Har oylik majburiy to'lov (keyingi o'rinlarda "minimal to'lov"): kalendar oyi yakuni bo'yicha foydalanilgan kredit limiti qoldig'ining 10 foizi miqdorida, lekin 100 ming so'mdan (kredit limiti qoldig'idan ko'p bo'lmaydi) kam bo'lmagan miqdorda hisoblanadi. Minimal to'lov to'lov kuniga qadar so'ndirilishi lozim (differensial to'lov usuli). Minimal to'lov amalga oshirilmagan holatda, ushbu to'lov muddati o'tgan kredit hisobvaraqlariga o'tkaziladi va kredit karta bloklanadi.<br>**4.6.** Muddatida to'lanmagan asosiy qarz uchun yuqori foiz stavkasi: kredit foiz stavkasining 1,5 baravar oshirilgan miqdorida. | - настоящая оферта и ее условия разработаны в соответствии с статьями 367, 369, 370 Гражданского кодекса.<br>**1.4.** Максимальная сумма кредитного лимита определяется через скоринговую программу банка.<br>**2. Предмет договора**<br>**2.1.** Банк обязуется предоставить заемщику, акцептовавшему настоящий договор оферты, кредитную карту на личные нужды, а Заемщик обязуется своевременно погашать полученные средства на кредитную карту в установленные сроки и на установленных условиях, а также платить проценты за пользование картой.<br>**3. Порядок и цели кредитная карта**<br>**3.1.** Кредитная карта выделяется путем перечисления денег со ссудного счета на кредитную банковскую карту, выпущенную на имя заемщика, в рамках возобновляемой кредитной линии.<br>**3.2.** Кредитная банковская карта, к которой привязан кредитный лимит, используется для целей осуществления платежей и получения наличных денег.<br>**4. Использование кредитной карты и условия его погашения**<br>**4.1.** Процентная ставка по кредитам: 26,9 процента. При этом проценты не начисляются в случае полного возврата лимит кредита до 10 числа (дня оплаты) следующего месяца, когда лимит кредита были использованы для приобретения товаров и услуг.<br>**4.2.** Процентная ставка неизменна.<br>**4.3.** Срок кредита: 4 года. При этом последние 12 месяца будет работать на погашения.<br>**4.4.** Дата выплаты: 10го числа каждого месяца.<br>Если день платежа приходится на нерабочий день (праздничный день, дополнительный праздник), оплата переносится на следующий рабочий день.<br>**4.5.** Ежемесячный обязательный платеж (в дальнейшем 'минимальный платеж'): составляет 10% от остатка использованного кредитного лимита на конец календарного месяца, но не менее 100 000 сум (не превышая остаток кредитного лимита). Минимальный платеж должен быть погашен до даты платежа (дифференциальный способ оплаты). Если минимальный платеж не будет произведен к дате платежа, этот платеж будет переведен на просроченные кредитные счета, а кредитная карта будет заблокирована. |

| | |
|---|---|
| **4.7.** Har oylik foiz to‘lovi: kalendar oyi yakuni bo‘yicha hisoblanadi va to‘lov kuniga qadar so‘ndirilishi lozim. Bunda, kredit limiti bo‘yicha foizlar kunlik va har oyning mavjud bo‘lgan kunlar soni bo‘yicha nol qoldiq vujudga kelguniga qadar hisoblanadi va 4.10-bandda keltirilgan ketma ketlikda so‘ndiriladi.<br>**4.8.** Kredit limiti skoring natijasidan kelib chiqib belgilanadi. Kredit limitidan foydalanilgan qismiga kamaytirib, so‘ndirilgan asosiy qarz qismiga tiklab boriladi.<br>Qarz oluvchining kredit layoqatliligi pasaygan yoki to‘lov intizomiga amal qilinmagani aniqlangan taqdirda, kredit limiti kamaytirilashi mumkin.<br>**4.9.** Naqd pul olish va karta/hisobvarag‘/hamyonga pul o‘tkazish bir oylik limiti: Kredit limitining to‘liq miqdorida. Bunda, xizmat haqlari (amaldagi bank tariflariga asosan) ham inobatga olinishi lozim.**4.10.** Agar amalga oshirilgan to‘lov summasi qarz oluvchining kredit bo‘yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo‘lmasa, qarz oluvchining qarzi quyidagi navbatda qoplanadi:<br>1) asosiy qarz bo‘yicha muddati o‘tgan qarzdorlik va muddati o‘tgan foiz to‘lovlari mutanosib ravishda;<br>2) joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo‘yicha qarzdorlik;<br>3) neustoyka (jarima, penya);<br>4) kreditorning qarzdorlikni uzish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa xarajatlari.<br>**4.11.** Mazkur shartnoma bo‘yicha Bank o‘z talablarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan pul mablag‘larini Fuqarolik kodeksining 783-moddasiga asosan, Qarz oluvchining barcha hisobvarag‘larida (ya’ni ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlari, bank kartasi va boshqa hisobvarag‘) mavjud bo‘lgan pul mablag‘larini akseptsiz (roziligisiz) memorial order yoki to‘lov talabnomasi orqali hisobdan chiqarishga haqli.<br>Bunda Bank ushbu mablag‘ hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda hisobvaraq (omonat) egasiga uning hisobvarag‘idan qancha miqdordagi mablag‘ qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko‘rsatgan holda (SMS) xabarnoma (ma’lumotnoma) yuboradi.<br>**4.12.** Kredit limit miqdorining 130% dan kam bo‘lmagan miqdorda, sug‘urta kompaniyasining kreditlarni qaytarmaslik xatari sug‘urtalash polisi ta’minoti taqdim etilishi lozim.<br>**5. Taraflarning huquq va majburiyatlari**<br>**5.1. Bank majburiyatlari**: | **4.6.** Повышенная процентная ставка за не погашенный в срок основной долг: в 1,5 кратном размера процентной ставки.<br>**4.7.** Ежемесячный процентный платеж: рассчитывается по окончании календарного месяца и должен быть погашен до даты платежа. При этом проценты по кредитному лимиту рассчитываются ежедневно и за количество дней в месяце, до тех пор, пока не возникнет нулевой остаток, и погашаются в порядке, указанном в пункте 4.10.<br>**4.8.** Кредитный лимит устанавливается на основе результатов скоринга. Использованная часть уменьшается на часть использованного кредитного лимита и восстанавливается на часть погашенного основного долга.<br>Кредитный лимит может быть уменьшен в случае снижения кредитоспособности заемщика или выявления несоблюдения платежной дисциплины.<br>**4.9.** Лимит на снятие наличных и переводы на карту/счёт/кошелёк за месяц: в полном размере кредитного лимита. При этом необходимо учитывать плату за услуги (в соответствии с действующими тарифами банка).<br>**4.10.** Если сумма произведенного платежа недостаточна для исполнения обязательств по кредиту, то задолженность заемщика будет погашаться в следующей очередности:<br>1) соразмерно просроченная задолженность по основному долгу и просроченные процентные платежи;<br>2) начисленные проценты за текущий период и задолженность по основному долгу за текущий период;<br>3) неустойка (штраф, пеня);<br>4) иные расходы кредитора, связанные с погашением задолженности.<br>**4.11.** По настоящему договору банк вправе списывать денежные средства, имеющиеся на всех счетах заемщика (на зарплатных и приравненных к ним платежах, на банковских карточных и иных счетах), необходимые для удовлетворения своих требований, без акцепта (согласия) в соответствии со статьей 783 Гражданского кодекса, мемориального ордера или платежного требования.<br>В этом случае Банк направит владельцу счета (вклада) уведомление (СМС) о размере средств снятые с его счета не позднее следующего рабочего дня со дня |

| | |
|---|---|
| **5.1.1.** Qarz oluvchiga ssuda va boshqa lozim bo‘lgan hisobvarag‘lar ochish;<br>**5.1.2**. Kredit bank kartasi faol va soz xolatda bo‘lganda mazkur shartnomada ko‘rsatilgan shartlar va miqdorda pul mablag‘laridan foydalanish uchun kredit karta taqdim etish;<br>**5.1.3.** Qarz oluvchining bankdagi bank karta hisobvarag‘iga kelib tushayotgan pul mablag‘larini uning vujudga kelgan qarzdorligini qoplash uchun yo‘naltirish;<br>**5.1.4.** Qarz oluvchini foydalanilgan kredit limiti va unga hisoblangan foizlar bo‘yicha vujudga kelgan qarzdorlik to‘g‘risida yozma yoki og‘zaki tartibda xabardor etish;<br>**5.1.5.** Kredit limiti va undan foydalanganlik uchun foizlar undirilishi to‘g‘riligiga rioya etish;<br>**5.1.6**. Kredit limiti va hisoblash masalalari bo‘yicha me’yoriy huquqiy hujjatlar va bankning ichki me’yoriy hujjatlaridagi o‘zgarishlar haqida bankning veb sayt (www.sqb.uz) orqali xabardor qilish;<br>**5.1.7.** Qarz oluvchining kredit layoqatliligi pasaygan yoki to‘lov intizomiga amal qilinmagani aniqlangan taqdirda, kredit limitini kamaytirilganligi / to‘xtatilganligi haqida uning sabablarini ko‘rsatgan holda xabornoma yuborish;<br>**5.1.8**. Muddatida to‘lanmagan qarzdorlikni bank kartasi va boshqa hisobvarag‘lardan akseptsiz ravishda hisobdan chiqarilgan taqdirda, hisobdan chiqarilganligi bo‘yicha elektron xabarnoma yuborish.<br>**5.2. Bank huquqlari:**<br>**5.2.1.** Quyidagi holatlarda Qarz oluvchidan kredit limiti va unga hisoblangan foizlarni muddatidan oldin qaytarish hamda kredit karta bo‘yicha barcha qarzdorliklar bartaraf etish haqida talab qo‘yishi mumkin:<br>Kredit karta bo’yicha hisoblangan asosiy qarz va (yoki) foizlarning to‘lov muddati buzilishi;<br>Qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashishi;<br>Qarz oluvchining hisobvarag‘idagi pul mablag‘lariga (shuningdek bankda ochilgan) taqiq qo‘yilgan bo‘lsa;<br>Qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlarini o‘z muddatida bajarilishiga tahdid soluvchi asos va boshqa hodisalar sodir bo‘lib, shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmagan bo‘lsa;<br>**5.2.2.** Qarz oluvchining bank karta hisobvarag‘i bo‘yicha amaliyotlarni nazorat va monitoringini mustaqil tarzda amalga oshirish (shuningdek, hisobidagi kirim-chiqim pul aylanmalari holati); | списания данных средств, указав причину и в чью пользу были сняты средства.<br>**4.12.** Необходимо предоставление обеспечения страховым полисом в размере не менее 130% от суммы выделенного лимита кредитной карты, страховой компанией на риск невозврата кредитов.<br>**5. Права и обязанности сторон**<br>**5.1. Обязательства банка**:<br>**5.1.1.** Открытие ссудных и других обязательных счетов заемщику;<br>**5.1.2.** Предоставление кредитной карты на пользование денежными средствами на условиях и в сумме, указанных в настоящем договоре, при активном и исправном состоянии кредитной банковской карты;<br>**5.1.3.** Направление денежных средств, поступающих на банковский счет заемщика в банке, на погашение его задолженности.<br>**5.1.4.** Информирование заемщика в письменной или устной форме о возникшей задолженности по кредитному лимиту и начисленным на него процентам;<br>**5.1.5.** Соблюдение правильности взимания процентов за пользование кредитного лимита;<br>**5.1.6.**<br>Оповещение о изменениях в нормативно-правовых актах по вопросам кредитного лимита и расчетов, а также в внутренних нормативных документах банка, осуществляется через веб-сайт банка (www.sqb.uz).<br>**5.1.7.** В случае выявления снижения кредитоспособности заемщика или несоблюдения платежной дисциплины направить уведомление о снижении / прекращении кредитного лимита с указанием его причин;<br>**5.1.8.** В случае списания задолженности, не оплаченной в срок, с банковской карты и других счетов без акцепта, отправить электронное уведомление о списании.<br>**5.2. Права Банка**<br>**5.2.1.** В следующих случаях кредитор имеет право потребовать от заемщика досрочного возврата кредитного лимита и начисленных процентов, а также погашения всей задолженности по кредитной карте:<br>Нарушение сроков платежа по основному долгу и/или процентам по кредитной карте;<br>Ухудшение финансового положения заемщика;<br>Наложение ареста на денежные средства на счете заемщика (в том числе в банке); |

**5.2.3**. Kredit karta bo‘yicha barcha qarzdorliklar qaytarilishida o‘zining huquq va manfaati himoyasi uchun yetarli va zarur bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va shartnomadagi qaytarishning barcha choralarni ko‘rish. Bu bilan bog‘liq barcha harajatlar Qarz oluvchi tomonidan qoplanadi;

**5.2.4.** Bank kredit karta bo‘yicha qarzdorliklarni qaytarilishini kafolatlash maqsadida qarz oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni qonunda belgilangan tartibda va doirada banklar hamda kredit byurosi bilan almashib turishlari va bir-birlariga taqdim etishlari mumkin;

**5.2.5**. Kredit va unga hisoblangan foizlarni to‘lash muddati ikki va undan ortiq marta buzilganda bank qarzdorlikni muddatidan oldin, jumladan undiruvni kredit ta’minotiga qaratish, sudga murojaat qilish va O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va shartnomadagi qaytarishning barcha choralarni ko‘rishi mumkin.

**5.3. Qarz oluvchining majburiyatlari:**

**5.3.1**. Kredit karta bo‘yicha asosiy qarz va foizlarni belgilangan muddatda va miqdorda to‘lash, ish haqi yoki unga tenglashtirilgan to‘lovlarni o‘tkazish, zarur hollarda, naqd pul mablag‘larini Bank kassasiga topshirish yo‘li bilan to‘lovlarni amalga oshirish;

**5.3.2.** Qarz oluvchi va ish beruvchi o‘rtasidagi mehnat munosabatlari bekor bo‘lgan taqdirda, Bankka bu haqida keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda xabar berish;

**5.3.3**. Kredit limiti va unga hisoblangan foizlarni o‘z vaqtida va to‘liq qoplanishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan barcha holatlar haqida bankni o‘z vaqtida xabardor etish;

**5.3.4.** Yashash manzili va ish joyi o‘zgarganligi haqida, Bankni besh ish kunidan kechiktirmagan holda yozma tartibda ogohlantirish;

**5.3.5.** Qarz oluvchi bilan Bank o‘rtasida aloqa vositasi bo‘lgan, ya’ni Qarz oluvchi bilan bog‘lanish imkonini beruvchi ma’lumotlar (telefon raqam va boshqalar)ning o‘zgarganligi haqida, Bankni uch kunlik muddatda yozma tartibda ogohlantirish;

**5.3.6.** Qarz oluvchi Bankka noto‘g‘ri ma’lumotlar berilishi yoki o‘zgarish haqida bankni xabardor qilmaganligi sababli kelib chiqadigan holatlar uchun javobgar;

**5.3.7.** Kredit karta bo‘yicha qarzdorlik doirasida o‘z majburiyatlari yuzasidan Bank oldida barcha mol-mulki bilan javob berish;

Если заемщик не исполнил условия договора в срок, и если имеются основания или другие события, угрожающие выполнению условий договора."

**5.2.2.** Самостоятельное осуществление контроля и мониторинга операций по банковскому карточному счету заемщика (а также состояния входящих и исходящих денежных оборотов по его счету);

**5.2.3.** При возврате всей задолженности по кредитной карте заемщик обязан принять все необходимые и достаточные меры для защиты своих прав и интересов в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан и условиями договора. Все расходы, связанные с этим, покрываются заемщиком.

**5.2.4.** С целью обеспечения возврата задолженности по кредитной карте банк может обмениваться информацией о заемщике с банками и кредитными бюро в порядке и пределах, установленных законом, а также предоставлять эту информацию друг другу;

**5.2.5.** В случае, если срок оплаты кредита и начисленных процентов нарушен дважды или более, банк может потребовать досрочного возврата задолженности, включая обращение взыскания на кредитное обеспечение, подачу иска в суд и принятие всех мер, предусмотренных действующим законодательством Республики Узбекистан и условиями договора.

**5.3. Обязательства заемщика**:

**5.3.1.** Погашение основного долга и процентов по кредитному лимиту в установленные сроки и в размерах, перечисление заработной платы или приравненных к ней платежей, а в необходимых случаях-путем передачи наличных денежных средств в кассу банка;

**5.3.2.** В случае прекращения трудовых отношений между заемщиком и работодателем, заемщик должен уведомить банк об этом не позднее следующего рабочего дня.

**5.3.3.** Своевременно информировать банк обо всех ситуациях, которые могут повлиять на своевременное и полное погашение кредитного лимита и начисленных на него процентов;

**5.3.4.** Не позднее чем за пять рабочих дней письменно предупредить банк об изменении адреса проживания и места работы;

**5.3.5.** В трехдневный срок письменно предупредить банк об изменении данных (номера телефона и т.д.),

**5.3.8.** Login, parol va maxfiy so'zni oshkor qilmaslik, shuningdek tizimga kirish uchun SMS xabarnoma orqali yuborilgan tasdiqlov kodlarini uchinchi shaxslarga bermaslik, bunday holatlar kuzatilsa Bank ushbu holat yuzasidan kelib chiqqan moddiy va ma'naviy zararlar uchun javobgar emas;

**5.3.9.** Qarz oluvchi quyidagilarni tasdiqlaydi va kafolatlaydi:

**a)** qarzdorlik muammoga aylanganda va o'z muddatida to'lanmaganda, uning so'ndirilishi yuzasidan amaliy yordam so'rab, Qarz oluvchining ish joyi, yashash joyidagi MFY va yaqin qarindoshlariga Bank tomonidan yozma murojaat qilinishiga o'z roziligini beradi hamda bu holat bank sirini oshkor qilish deb hisoblanmaydi;

**b)** Kredit to'lovi kechiktirilganda, bank tomonidan muddati o'tgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida elektron xabar jo'natilishi va telefon orqali qo'ng'iroqlar amalga oshirilishiga mijoz qarshi emas.

**5.4. Qarz oluvchining huquqlari**:

**5.4.1**. Mazkur shartnomaga muvofiq kredit limitidan istalgan vaqtda foydalanish;

**5.4.2**. Kredit limitidan foydalanganligi uchun hisoblangan asosiy va foiz qarzdorliklarni muddatidan oldin to'liq yoki qisman qaytarish;

**5.4.3.** Kredit limitidan foydalanish to'liq yoki qisman rad etilganda, bunda bankni uch ish kun ichida xabardor qilish;

**5.5. Sanksiyalar bilan bog'liq xatarlarni boshqarish bo'yicha shartlar**

**5.5.1.** Ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlarning har biri o'z faoliyatida moliyaviy va iqtisodiy sanksiyalar bo'yich xalqaro qonunchilikka rioya qilishga qaratilgan siyosat va tartiblariga amal qilishini, ularni qo'llab-quvvatlanishini tan oladi hamda tasdiqlaydi.

**5.5.2.** Qarz oluvchi uchun kredit karta chiqarishdan oldin Bank tavakkalchilikni (shu jumladan sanksiyalar xavfi) aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni va hujjatlarni so'rashga haqli. So'ralgan ma'lumotlar taqdim etilmagan yoki to'liq taqdim etilmagan taqdirda, bank Qarz oluvchiga hisobvaraq ochishida rad etishga haqli.

**5.5.3.** Qarz oluvchi yoki uning operatsiyasi sanksiya ta'sir doirasiga tushganda yoki tushishi xavfi mavjud bo'lganda, Bank- operatsiyani o'rganish maqsadida qo'shimcha ma'lumotlarni hamda zarur bo'lgan hujjatlarni olish(so'rash), operatsiya miqdorini

являющихся средством связи между заемщиком и банком, то есть позволяющих связаться с заемщиком;

**5.3.6.** Заемщик несет ответственность за обстоятельства, которые могут возникнуть из-за предоставления банку недостоверной информации или из-за того, что он не уведомил банк об изменении;

**5.3.7.** Отвечать всем своим имуществом перед банком по своим обязательствам в рамках задолженности по кредитному лимиту;

**5.3.8.** Не разглашать Логин, Пароль и Секретное слово, также не отдавать третьим лицам подтверждающие коды для входа в систему отправленные через СМС информирование. При возникновении ситуации в разглашении данных и несоблюдении предписанных рекомендаций, Банк не несет ответственности в возмещении материального и морального ущерба;

**5.3.9.** Заемщик подтверждает и гарантирует:

а) дает свое согласие на письменное обращение Банка к месту его работы, по месту жительства и близким родственникам заемщика с просьбой оказать практическую помощь по его погашению в случае возникновения проблем и несвоевременного погашения задолженности, и это обстоятельство не считается разглашением банковской тайны;

б) В случае задержки платежа по кредиту, клиент не возражает против отправки электронного уведомления о возникновении просроченной задолженности и проведения телефонных звонков со стороны банка

**5.4. Права заемщика:**

**5.4.1.** Использование кредитного лимита в любое время в соответствии с настоящим Договором;

**5.4.2.** Досрочное полное или частичное погашение основной и процентной задолженности, начисленной за пользование кредитного лимита;

**5.4.3.** Уведомление банка о полном или частичном отказе в использовании кредитного лимита в течение трех рабочих дней;

**5.5. Условия по управлению санкционными рисками**

**5.5.1.** Выполняя свои обязательства по настоящему Соглашению, каждая из сторон признает и подтверждает, что будет следовать и поддерживать политику и процедуры, направленные на соблюдение в своей деятельности международного законодательства о финансовых и экономических санкциях.

**5.5.2.** До предоставления кредитной карты Заемщику Банк имеет право запросить всю

chegaralash, operatsiyani cheklash, rad etish, shuningdek mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega;

**5.5.4.** Bank-Qarz oluvchi hamda u bilan tuzilgan bitim bo'yicha har qanday zarur ma'lumot yoki hujjatlarni (kontragent to'g'risidagi ma'lumotlar, uning to'liq rekvizitlari, uning afillangan shaxslari ro'yxati, aksiyadorlari/muassislari tarkibi, ijro organi, mansabdor shaxslari, xodimlari, maxsulot to'g'risida, jo'natish hujjatlari, maxsulotning spitsifikatsiyasi, tashuvchi to'g'risidagi ma'lumotlar va b.) sanksiyalar ro'yxatida mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash maqsadida Qarz oluvchidan talab qilishga, qarz oluvchi tomonidan barcha zarur hujjat/ma'lumotlar taqdim qilinmagan hollarda, qarz oluvchiga xizmat ko'rsatishni rad etish huquqiga ega.

**5.5.5.** Bank har qanday sanksiya va embargolar bilan bog'liq holatlar oqibatida Qarz oluvchining topshirig'iga asosan amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha pul mablag'larining qaytarilishi, bloklanishi, muzlatilishi, yo'qolishi yoki shu kabi boshqa holatlar uchun javobgar bo'lmaydi. Shuningdek, har qanday sanksiyalar ta'siri sababli Qarz oluvchiga yetkazilgan zarar uchun javobgar emas.

## 6. Tomonlarning javobgarligi

**6.1.** Qarz oluvchi tomonidan asosiy qarzni qaytarish muddati kechiktirilganda (muddati o'tgan kredit), Qarz oluvchi Bankka butun kechiktirilgan davr uchun shartnomaning 4.6-bandida belgilangan miqdorda yuqori foiz to'laydi.

**6.2.** Bank tomonidan kredit mablag'ini ajratish kechiktirilganida, Bank Qarz oluvchiga kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizdan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

**6.3.** Bank Qarz oluvchining ehtiyotsizligi natijasida ShIR (PIN) va boshqa kod/parollari uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolishi oqibatida amalga oshirilgan to'lovlar va tranzaksiyalar uchun javobgar emas.

**6.4.** Tomonlarning yuqori foiz yoki penyalar to'lashi taraflarni shartnoma shartlarini bajarish majburiyatidan ozod qilmaydi.

**6.5.** Foizlarni belgilangan muddatda to'lamaganligi va ular bo'yicha muddati o'tgan summalar vujudga kelgani uchun Qarzdor Bankka kechiktirilgan to'lovning har bir kuni uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4%i miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% idan oshmagan miqdorda penya to'laydi.

необходимую информацию, а также документацию необходимую для определения рисков, в том числе риска применения санкций. В случае непредоставления или не предоставления в полном объёме затребованной информации банк имеет право за собой отказать Заемщику в открытии счёта.

**5.5.3.** В случае если Заемщик либо его сделка попадает под действие санкций, либо имеется риск попадания под действия санкций, для определения такого риска Банк имеет право запросить дополнительную информацию, а также необходимую документацию касательно сделки, также ограничить сумму сделки, ограничить или отказаться от сделки, и имеет право в одностороннем порядке расторгнуть договор.

**5.5.4.** Банк вправе потребовать от заемщика любую необходимую информацию или документы, касающиеся заемщика исходя из заключенного с ним договора (сведения о контрагенте, его полные реквизиты, список его аффилированных лиц, состав акционеров/ учредителей, исполнительный орган, должностные лица, сотрудники, сведение о продукте, товаросопроводительные документы, спецификацию товара, информацию о перевозчике и др.) с целью определения, находится ли контрагент в санкционном списке или нет, и вправе отказать в обслуживании заемщика в случаях, когда необходимые документы/информация заемщиком не предоставлены.

**5.5.5.** Банк не несет ответственности за возврат, блокировку, замораживание, утерю или иные подобного рода действия денежных средств в результате каких-либо санкций и эмбарго при проведении платежей, совершенных по поручению Заемщика. Также Банк не несет ответственности за ущерб, причиненный Заемщику вследствие воздействия каких-либо санкций.

## 6. Ответственность сторон

**6.1.** При просрочке заемщиком возврата основного долга (просроченного кредита) заемщик выплачивает банку за весь просроченный период повышенный процент в размере, установленном п. 4.6 договора.

**6.2.** При задержке выделения банком кредитных средств банк уплачивает заемщику пеню в размере 0,4% от суммы просроченного платежа за каждый день просрочки, но не более 50% от суммы просроченного платежа.

### 7. Nizolarni hal etish tartibi

**7.1.** Tomonlar ushbu shartnoma yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan kelishmovchilik va nizolarni muzokara va maslahatlar yo‘li bilan hal qiladilar. Agarda ko‘rsatib o‘tilgan kelishmovchilik va nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etilmasa, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan sudda hal etiladi. Nizolar vujudga kelgan taqdirda, Bank yozuvlari, ko‘chirmalar har ikki tomon uchun mazkur shartnoma bo‘yicha majburiyatlar isbotining dalili bo‘lib hisoblanadi.

### 8. Shartnomaning amal qilish muddati

**8.1.** Mazkur shartnoma akseptlanganidan so‘ng kuchga kiradi, Qarz oluvchi tomonidan ushbu shartnoma bo‘yicha majburiyatlar to‘liq bajarilguniga qadar amalda bo‘ladi.

**8.2.** Mazkur shartnoma muddatidan oldin, shartnomada ko‘zda tutilgan hollarga asosan bir tomonlama bekor qilinishi mumkin.

**8.3**. Mazkur shartnoma tomonlardan birining tashabbusi bilan bekor bo‘lganda, Qarz oluvchi kredit karta bo‘yicha barcha qarzdorliklarni Bankka to‘lashi shart.

### 9. Boshqa shartlar

**9.1.** Kredit karta limiti mobil ilova orqali 24/7 rejimida ajratiladi.

**9.2.** Kredit karta amal qilish muddati tugaganida, shartnoma muddati uzaytirilmaydi va o‘z kuchini yo‘qotgan hisoblanadi.

Mazkur shartnomaga nisbatan Bankning ichki me’yoriy hujjatlarida belgilangan qoidalari qo‘llaniladi va u qarz oluvchi uchun majburiy yuridik kuchga ega bo‘ladi.

**9.3.** Qarz oluvchi bankning yozma roziligisiz mazkur shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxslarga o‘tkazishga haqli emas.

**9.4.** Mazkur shartnomaning bir yoki bir nechta sharti qonunga yoki sud qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotsa, shartnomaning boshqa shartlari bekor bo‘lishiga asos bo‘lmaydi.

**9.5.** Mazkur shartnomada ko‘zda tutilmagan boshqa holatlar bo‘yicha tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga asosan hal etadilar.

**9.6.** Kredit bank kartasi Qarz oluvchining murojaatiga asosan mijoz tomonidan taqdim etilgan manzilga yetkazib berilishi mumkin. Ushbu xizmat yetkazib beruvchi

**6.3.** Банк не несет ответственности за платежи и транзакции, которые были выделены в результате халатности заемщика, когда пароль (PIN-код) и другие коды/пароли стали известны третьим лицам.

**6.4.** Уплата сторонами высоких процентов или пеней не освобождает стороны от обязанности выполнять условия договора.

**6.5.** При неуплате процентов в указанный срок и образовании по ним просроченных сумм, Заёмщик уплачивает Банку пеню в размере 0,4 % за каждый день просрочки платежа, но не более 50 % от просроченного платежа

### 7. Порядок разрешения споров

**7.1.** Стороны разрешают разногласия и споры, которые могут возникнуть в связи с настоящим Соглашением, путем переговоров и консультаций. В случае если указанные разногласия и споры не могут быть разрешены путем переговоров, они разрешаются в суде в соответствии с действующим законодательством Республики Узбекистан. В случае возникновения споров банковские выписки, выписки являются для обеих сторон доказательством обязательства по настоящему Договору.

### 8. Срок действия договора

**8.1.** Настоящий договор вступает в силу после его акцепта и действует до полного выполнения заемщиком обязательств по данному договору.

**8.2.** Данный договор может быть расторгнут досрочно в одностороннем порядке в случаях, предусмотренных договором.

